

ANDIJON VILOYATI MEHMONXONA XO'JALIGI RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Teshaboyev Baxramjon Akramjanovich

Andijon davlat universiteti, Menejment kafedrası tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22842224>

Qabul qilindi: 14-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 18-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 19-sentabr 2026-yil

Annotatsiya:

Ushbu tezisdá Andijon viloyati mehmonxona xo'jaligi rivojlanishining hozirgi holati tahlil qilingan hamda soha subyektlarida boshqaruv samaradorligini oshirish yo'nalishlari asoslangan. Tadqiqot davomida mehmonxona korxonalarida mavjud samaradorlik muammolari aniqlanib, ularni hal etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar:

mehmonxona xo'jaligi, Andijon viloyati, boshqaruv samaradorligi, turizm, rentabellik, mintaqaviy rivojlanish.

Kirish.

Bugungi kunda respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish va mintaqalarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish ustuvor davlat vazifalaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida mamlakatimizda mehmonxona xo'jaligi jadal rivojlandi. Andijon viloyati o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, qulay geografik joylashuvi va rivojlangan transport infratuzilmasi bilan mintaqaning turistik salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi.

Viloyatda mehmonxona subyektlari soni yildan-yilga ortib, ular ko'rsatayotgan xizmatlar hajmi va turi kengaymoqda. Biroq mehmonxona subyektlari sonining miqdoriy o'sishi va ularning tushum hajmining ko'payishi har doim ham boshqaruv samaradorligining oshishiga mutanosib bo'lmayotgani kuzatilmoqda. Bu esa viloyat mehmonxona xo'jaligining hozirgi holatini chuqur tahlil qilish va samaradorlikni oshirish yo'nalishlarini asoslash zaruratini keltirib chiqaradi.

Asosiy qism va tahlil. Andijon viloyatidagi mehmonxona xo'jaligi subyektlari - "Plaza Palace" MChJ va "AGROTOUR Technovation" MChJ faoliyati tahlil qilinganda, viloyat mehmonxona xo'jaligida samaradorlik muammosining ikki xil ko'rinishi aniqlandi. "Plaza Palace" MChJ da tushum barqaror bo'lishiga qaramay foyda marjasining sezilarli darajada pasayishi - "marja eroziyasi" holati kuzatildi. "AGROTOUR Technovation" MChJ da esa tushumning jadal o'sishiga qaramay foyda marjasining nihoyatda past darajada qolishi - "isrofli o'sish" holati namoyon bo'ldi.

Tahlil natijalariga ko'ra, viloyat mehmonxona korxonalarida samaradorlikning past bo'lishiga asosiy sabab tushumning yetishmasligi emas, balki operatsion jarayonlardagi isrofgarchilikning yuqoriligi, xarajatlar ustidan nazoratning zaifligi hamda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish darajasining yetarli emasligidir. Shuningdek, boshqaruv kadrlarining malakasi va raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi ham soha rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillar sifatida aniqlandi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Andijon viloyati mehmonxona xo'jaligining rivojlanishida sezilarli o'sish tendensiyalari kuzatilgani holda, soha subyektlarida boshqaruv samaradorligi hali ham yetarli darajada ta'minlanmagan. Viloyat mehmonxona korxonalarida asosiy muammo tushum hajmining yetishmasligida emas, balki operatsion jarayonlardagi isrofgarchilikning yuqoriligi, xarajatlar ustidan nazoratning zaifligi hamda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish darajasining pastligida namoyon bo'lmoqda. Ushbu holatni bartaraf etish va viloyat mehmonxona xo'jaligining samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, mehmonxona korxonalarida operatsion jarayonlardagi isrofgarchilikni kamaytirish va tannarx sig'imini pasaytirish orqali rentabellikni oshirish. Buning uchun xizmat ko'rsatishning har bir bosqichida qo'shimcha qiymat yaratmaydigan operatsiyalarni aniqlash va bartaraf etish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish hamda jarayonlarni optimallashtirish zarur. Ushbu chora korxonaga mavjud tushum hajmida ham foydani sezilarli darajada oshirish imkonini beradi va sohada rentabellikning barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, boshqaruv jarayonlariga zamonaviy boshqaruv usullari (Agile, Lean) va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. Agile yondashuvi mehmonxona boshqaruvining bozor o'zgarishlariga moslashuvchanligini oshirsa, Lean-menejment isrofgarchilikni kamaytirish orqali resurs samaradorligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, onlayn bron tizimlari, raqamli marketing va boshqaruv axborot tizimlarini joriy etish xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilaydi va mehnat unumdorligini oshiradi.

Uchinchidan, mehmonxona boshqaruv kadrlarining kasbiy malakasini muntazam oshirish mexanizmini yo'lga qo'yish. Malakali va barqaror kadrlar tarkibi xizmat sifatini ta'minlaydi, operatsion xatolarni va isrofgarchilikni kamaytiradi, bu esa pirovard natijada korxona rentabelligining oshishiga xizmat qiladi. Xodimlar malakasini oshirishda jahon tajribasidan foydalanish hamda kasbiy tayyorgarlikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.¹

To'rtinchidan, viloyat hududlarida mehmonxona xo'jaligining infratuzilmasini rivojlantirish va turistik salohiyatdan samarali foydalanish. Andijon viloyatining boy tarixiy-madaniy merosi va turistik joylari mehmonxona sohasining kengayishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Shu bois hududiy turistik infratuzilmani takomillashtirish va mehmonxona xizmatlarini turistik oqim bilan uyg'unlashtirish sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarning kompleks tarzda amalga oshirilishi Andijon viloyati mehmonxona xo'jaligining boshqaruv samaradorligini oshirishga, sohada rentabellikni ta'minlashga hamda mintaqaning turistik salohiyatidan yanada samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – 460 b.
2. Ohno T. Toyota ishlab chiqarish tizimi: yirik miqyosli ishlab chiqarishdan tashqari. – Nyu-York: "Productivity Press", 1988. – 152 b.
3. Тешабоев А.Ю., Умнова М.К. Мировой опыт повышения квалификации работников дошкольного образования // Вестник науки и образования. – 2021. – № 16-2 (119). – С. 89–91.
4. Alimov R.A. Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv. Darslik. – T.: "Moliya", 2020. – 280 b.

¹ Тешабоев А.Ю., & Умнова М.К. (2021). Мировой опыт повышения квалификации работников дошкольного образования. Вестник науки и образования, (16-2 (119)), 89-91